


Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik

2018 yil yanvar-martida 762 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,6 % o'sgan.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (18,4 %), savdo sohasida (17,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (21,4 %), qurilishda tarmog'ida (13,4 %), yashash va ovqatlanishda (8,7 %), tashish va saqlashda (3,7 %) tashkil etilgan.

2018 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2018 yilning yanvar–martida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 639,1 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 33,6 %) yoki 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`sish sur`ati 96,3 %ni tashkil qildi;



– 181,8 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiyl investitsiyalar hajmining 7,3 %i) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`sish sur`ati 63,1 %ni tashkil qildi;



– 315,2 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 73,3 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`sish sur`ati 82,0 % ni tashkil qildi;



– 248,7 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (respublika jami xizmatlar xajmining 17,9 %), 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`sish sur`ati 109,7 % ni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 89,3 % yoki 1343,5 mlrd. so`mi (o`sish sur`ati 0,2 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 18,9 mln. AQSh dollari (umumiyligi eksport hajmining 38,9 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 3,8 mln. AQSh dollariga yoki 125,4 % ga ko`p;




– avtomobil transporti yuk aylanmasining 5,7 %ga (viloyatda jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 80,4 %i) ko`payishi ta`minlandi;


– yo`lovchi aylanmasining esa 3,7 % ga (umumiyligi yo`lovchi aylanmasining 96,5 %) ko`payishi ta`minlandi;

Hududlar bo`yicha eng ko`proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro shahri (108,5 mlrd.so'm), Vobkent (42,7 mlrd.so'm) va Buxoro tuman (22,0mlrd.so'm) shahar va tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiyligi hajmiga nisbatan % da)



2018 yil yanvar-martida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati




2018 yil yanvar-martida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri (421,0 mlrd.so'm), Kogon shahar (239,8 mlrd.so'm) va Olot (152,4 mlrd.so'm) shahar va tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Buxoro shahri (124,6 mlrd.so'm), G'ijduvon (34,6 mlrd.so'm) va Kogon shahar (13,4 mlrd.so'm) shahar va tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2018 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning
hududlar bo'yicha ulushi
(% da)**

	<i>Sanoat</i>	<i>Xizmatlar</i>	<i>Qurilish</i>
Buxoro viloyati	33,6	17,9	73,3
Buxoro shahar	60,3	14,7	82,7
Kogon shahar	19,7	25,3	71,8
<i>Tumanlar</i>			
Olot	40,3	22,3	45,3
Buxoro	78	23,8	99,7
Vobkent	100	23,4	100
G'ijduvon	53,0	22,0	100
Kogon	96,6	27,2	64,1
Qorako'l	55	23,7	93,2
Qoravulbozor	0,8	10,8	9,0
Peshko'	39	23,7	100
Romitan	20,9	23,5	89,8
Jondor	36,3	28,3	100
Shofirkon	63,9	23,2	54,8

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Vobkent tuman (100%), Kogon (96,6 %), va Shofirkon (63,9 %) Buxoro shahar (60,3%) shahar va tumanlar tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Jondor (28,3 %), Kogon (27,2 %) va Kogon shahar (25,3 %), Buxoro (23,8 %), Qorako'l (23,7 %), Vobkent (23,4 %) shahar va tumanlar tashkil etadi.


Qurilishda Vobkent, G'ijduvon, Peshko', Jondor tumanlari (100 %), Buxoro (99,7%), Qorako'l (93,2%) va Romitan (89,8 %) shahar va tumanlar tashkil etadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil I- chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvalar o'tkazildi. Unda 54 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, respondentlarning 66,7 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 33,3 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda qurilishda va savdo sohasida – 27,3 % va 63,6 %, xizmatlar sohasida – 37,5 % va 62,5 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 9,1 % va 72,7 %, sanoatda – 20 % va 70 % ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar savdoda – 9,1 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 18,2 %, sanoatda – 10%,ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil I-chorak uchun



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 80,0 % sanoat korxonalari, 90,9 % – savdo, 68,8 % – xizmatlar, 72,7% – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 80,0 % – qurilish tarmog'ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rilibotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.